

FIRIBGAR JAZOSINI OLDI !

Rustam oilasini ishga kiritishni ko'p o'yladi. Uni uylangan qizi hamshiralikni tugatgan. Biroq u ishga kirolmay yurgan. Rustam u bilan ahdu -paymon qilib, turmush quraylik, ishni ham hal qilamiz, - deya va'dalar berdi. To'ylari ham bo'lib o'tdi. Ayoli Gulxan, har ishdan og'iz ochsa, yuragi jiz etib ketardi. Oxiri kimdir unga ishga kirishni oson yo'li, boshliqni odamida, dedi. Ish yurituvchi Furqat bilan gaplashish kerakligini bilgach, uni yo'lini poyladi.

U tushlikka chiqib kelayotganini ko'rib unga yaqinlashdi-da, sizga bir iltimos bor edi, - dedi. Chetroq chiqaylik, - deb yo'lakcha chetidagi dorixona yoniga o'tishdi.

- Furqat aka sizdan iltimosim ayolim hamshiralikni tugatgan, to'ydan oldin ishga kiritaman, -deya so'z berib qo'yuvdim. Hash -pash deguncha chillasi ham chiqib qoldi. Har kuni men ishga ketayotganimda ishni eslatayapti. Siz iltimosni bajaring, men sizni xizmatigingizni qilay, - dedi. Bo'пти, katta bilan gaplashaman, erta shu payt keling natijasini aytaman, - dedi.

Ha, xuddi shunday bo'ldi. Ertasi ular ko'chada emas, oshxonada ikkovlani birga choy ustida uchrashib, kelishishdi. Kattaga 500, kadruga 200 AQSh dollari bo'lsa, ish hal bo'ladigan bo'ldi.

Uyiga kelgan Rustam o'ylay, o'ylay boshi qotdi. O'zi qarz havola qilib, bir amallab to'yni o'tkazdik. Endi kimdan so'rayman. 700 degani ham oz emasda. Shu xayol bilan kechqurun u to'g'ri tuman prokuraturasiga borib uchrashdi. U yerdagilar yordam berishdi. Ko'zga ko'rinmaydigan "rang" bilan yozib berishdi.

Ertasi kuni Rustam ayolini nomidan ariza va boshqa hujjatlarini olib, Furqatni ish yurituv xonasiga kirib borganida oddiy kiyimdagilar ham ularni

kutib turgan edi.

Furqat Rustamdan hujjatlarni qabul qilib oldi. Haligi hujjatlar orasida 700 sabil ham borligini bilgan Furqatni ko'zi o'ynab ketdi. Yuzida kulgi paydo bo'lib, siz mard ketdingiz, men ham bir -ikki kun ichida hal qilib, sizga telefon qilaman, deganini biladi, eshikdan noma'lum kishilar kirib kelishib, o'zlarini tanishtirdi.

Shunday qilib tibbiyot birlashmasidan yana bir firibgar kamaydi. Furqat Islamov aybiga to'liq iqror bo'lib sud tomonidan o'z jazosini oldi.

Jinoyat ishlari bo'yicha.

Oltinsoy tuman sudining raisi

T.Abdullayev